OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASHDA TAHLIL METODOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI	986
Saidova Dilfuza Abdufattohova	
O'ZBEKISTONDA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHI VA ALOQA	
KORXONALARI MOLIYAVIY FAOLIYATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	995
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH	
MANBALARI	1002
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH KONTEKSTIDA TIJORAT FAOLIYATI BILAN	
SHUG'ULLANADIGAN VA RAQOBAT RIVOJLANGAN SOHALARDA DAVLAT MUASSASALARINI	
ISLOH QILISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	1006
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANI O'RGANISH VA O'ZBEKISTON	
SHAROITIDA QO'LLASH TAMOIYILLARI	1013
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
JIZZAX VILOYATIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI	
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI IQTISODIY TAHLILI	1018
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	
STRATEGIK TARMOQLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR, INNOVATSION	
TEXNOLOGIYALAR VA JAHON TAJRIBASI.....	1024
Xushboqova Kamola Rustam qizi, Dilfuza Xamzayeva	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH	1029
Zaripova Sayohat Zafarovna	
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY:	
CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	1034
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Sarvarbek Allayev Erkin ugli, Shavkat Asrolovich Ruziev	
YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY MADANIYATNING RIVOJLANISHI.....	1041
Qodirova Shahodat G'aybullayevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA SHARIAT TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BANKLAR FAOLIYATINI	
TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI ("TRASTBANK" XAB MISOLIDA)	1048
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMLARI	
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	1055
Gulyamov Ulug'bek G'afurovich	
BUDJET TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI	
PROGNOZLASHTIRISHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	1059
Babayev Shavkat Bayramovich	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	
MASALALARI	1067
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



BOJXONA YIG'IMLARINING UNDIRILISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	1072
Jurayev Jonibek Javliyevich	
DAVLAT MOLIVASINI RAQAMLASHTIRISH VA FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	1078
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH.....	1083
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	1088
Avazbek Jo'rayev	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	1094
Umarova Lola Erkinovna	
REMOTE PREVENTION AND CORRECTION OF SPINAL DISORDERS IN OFFICE WORKERS VIA TELEGRAM BOT: RESULTS OF A PILOT STUDY.....	1101
David Kalendarev	
MODERN APPROACHES TO IMPROVING MANAGEMENT ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS.....	1107
Soatov Farhod Komiljon oglu	
O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV MA'LUMOTLAR ASOSIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	1115
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
DAVLAT XARIDLARIDA RAQAMLI NAZORAT VA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKI.....	1121
Abdullaeva Nigora Kilichbekovna	
MEHNAT BOZORI RIVOJLANISH DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	1127
Islomov Bobur Bahodir o'g'li	
SELYULOZA-QOG'OZ ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MEHNAT HAQI HISOBINING AMALDAGI HOLATI VA XUSUSIYATLARI.....	1133
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA TADQIQOT VA ISHLANMA XARAJATLARI HISOBINI HUIJATLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1136
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	1140
Turayev Abduvoxid Kuldashovich	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI VA ULARDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ BA'ZI MASALALAR.....	1146
Ernazarov Narmet Saparbayevich	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA RESURSLAR SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1150
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI REJALASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI.....	1158
Toshimov Azizbek Hakimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN INVESTITSIIYA LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1162
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
"YASHIL" BUXGALTERIYA HISOB: IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI MASALALAR.....	1168
Ergasheva Muqaddas Shuhratovna	



THE EFFECTIVENESS OF GREEN BONDS ISSUED BY BANKS IN FACILITATING THE LOW-CARBON TRANSITION OF ECONOMY	1172
Akmal Palvanov, Alisher Kalandarov	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA UZLUKSIZ AUDIT ALGORITMI VA INTEGRATSIYALASHGAN AUDIT PLATFORMASINI YARATISH.....	1182
Babakulova Matluba Kurbannazarovna	
THE INTEGRATION OF SUSTAINABLE EDUCATION AND SKILLS INTO UNIVERSITY CURRICULA: A CATEGORISATION ANALYSIS OF TOP 100 UNIVERSITIES IN THE IMPACT RANKINGS 2025	1186
Raxshona Nabibullayeva	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI BARQAROR RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA RIVOJLANTIRISH.....	1194
Shakobir Ashirboyev	
YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI.....	1204
Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	1210
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
GEOAXBOROT TIZIMLARI (GAT) ORQALI MEROS TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	1216
Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li	
МАРКЕТИНГ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ, ИНСТРУМЕНТЫ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	1224
Усманова Зумрад Исламовна	
O'ZBEKISTON FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINING AHAMIYATI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1228
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xajiabdulla o'g'li	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIGINI ANIQLASH YO'LLARI HAMDA UNING OBYEKTIV ZARURATI	1235
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ASOSIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI	1239
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBYEKTLARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1243
Gulomqodirova Ma'mura Saydumarxon qizi	
MUSOBAQA DAVRIDA MALAKALI MARKAZ O'YINCHILARINING HUJUM TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	1250
R.O. Obloberdiyeva	
ЦИФРОВЫЕ ФИСКАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ: ПРИМЕР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1258
Буранова Лола Вахобовна	
Шодиев Олимжон Абдурахмонович	
NAQD PULSIZ HISOB-KITOBARNING SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI.....	1265
Raximova Shaxlo Rajapb o'g'li	
XUSUSIY TIJORAT BANKLARIDA RESURS BAZASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KAPITAL YETARLILIGINI TA'MINLASHDA XALQARO TAJRIBALAR	1271
Ibragimov Xamidbek Jumaniyazovich	
XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING IQTISODIY MOHIYATI, TAMOIYILLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI.....	1276
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT O'TKAZISH JARAYONINING USLUBIY TAHLILI	1281
Saitmurotov Saitmurot Masharip o'g'li	
HUDUDLARDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SALOHİYATDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	1287
Alieva Mahbuba Toychievna	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI (AGROBANK ATB MISOLIDA)	1292
Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
TOMORQA YERLARIDAN YANADA SAMARALI FOYDALANISHNING YO'NALISHLARI (AUTSORSING XIZMATINI KO'RSATISH MISOLIDA).....	1300
Komiljon Qo'ziyev	
Olimjon Xamrayev	



TOMORQA YERLARIDAN YANADA SAMARALI FOYDALANISHNING YO'NALISHLARI (AUTSORSING XIZMATINI KO'RSATISH MISOLIDA)

Komiljon Qo'ziyev

Toshkent xalqaro universiteti dotsenti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD.)

Olimjon Xamrayev

Toshkent xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning tomorqa yerlari salohiyati va ulardan yanada samarali foydalanishda autsorsingning roli yoritilgan. Natijada tomorqa yer egalariга autsorsing xizmatlarini joriy etish bo'yicha takliflar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: autsorsing, tomorqa yerlari, dehqonchilik, chorvachilik, tomorqa autsorsingi, tomorqadan daromad olish, infratuzilma, mahalliy tadbirkor, tomorqa xizmati.

Аннотация. В статье рассматривается потенциал приусадебных земель Узбекистана и роль аутсорсинга в их более эффективном использовании. В результате представлены предложения и практические рекомендации по внедрению аутсорсинговых услуг для владельцев приусадебных участков.

Ключевые слова: аутсорсинг, приусадебные земли, земледелие, животноводство, аутсорсинг приусадебного хозяйства, доход с приусадебного участка, инфраструктура, местный предприниматель, услуги приусадебного хозяйства.

Abstract. The article examines the potential of household (backyard) lands in Uzbekistan and the role of outsourcing in their more efficient use. As a result, proposals and practical recommendations are provided for introducing outsourcing services for household land owners.

Keywords: outsourcing, household lands, agriculture, livestock farming, backyard farming outsourcing, income from household plots, infrastructure, local entrepreneur, household services.

KIRISH

O'zbekistonda tomorqa xo'jaliklari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholi bandligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, tomorqa xo'jaliklari 2023-yilda mamlakatdagi yalpi dehqonchilik mahsulotlarining 37,9 foizini, yalpi chorvachilik mahsulotlarining 88,4 foizini yetishtirib bergan. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklari aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad olishning eng qulay manbai hisoblanadi. Iqtisodiyotning bunday muhim komponentini yanada samarali ishlashini qanday qilib ta'minlash mumkin? Aholi tomorqalarini kichik bo'lsa ham qo'shimcha qiymat yaratish maydoniga aylantirish mumkinmi? Shu kabi qiziqarli savollar bu soha iqtisodiyotning dolzarb masalasi ekanligini anglatadi [1,2].

Nazariy jihatdan qaraganda, tomorqa egalariга yerni haydash, tuproq unumdorligini oshirish, sifatli urug'lik yetkazib berish, bozorbop ekin ekish va uni bioo'g'itlash hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ya'ni bog'dorchilik, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish, o'zaro kelishuv asosida sotish va tashish kabi xizmatlar ko'rsatilsa, ishlab chiqarish hajmi yanada ortishi mumkin.

Xalqaro tajriba. Xalqaro tajribaga ko'ra, mahalliy tomorqachilar yuqori va sifatli organik mahsulot yetishtirishda autsorsing xizmatidan keng foydalaniladi. Autsorsing xizmati mamlakatda organik mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlarini ham oshiradi.

Jumladan, Germaniyada qariyb 500 mingta kichik tomorqa (Kleingarten) mavjud bo'lib, ularga ko'rsatiladigan autsorsing xizmati hajmi 15 milliard yevroni tashkil qiladi. Autsorsing xizmati an'anaviy bog'lar



va sabzavotchilik yo'nalishida ommalashib bormoqda. Industrieverband Garten uyushmasi kichik tomorqalarga urug'lar, ko'chatlar, mevali daraxt ko'chatlari va barcha turdagi bog'dorchilik anjomlari, asboblari, bog' mebellari va boshqalarni sotish hamda ekin va daraxtlarni parvarishlash xizmatlari jadal rivojlanayotganligini qayd etgan. Mahalliy aholi "mening bog'im — mening qal'am" tamoyili bo'yicha kichik tomorqasida eko-yashil makon barpo etishga harakat qiladi [3].

National Allotment Society London Branch — Angliyadagi yirik tomorqa xo'jaligi uyushmasining filiali bo'lib, asosan tabiiy xilma-xillikni asrashga xizmat qiladi. Ushbu uyushma Londondagi 740 dan ortiq kichik yer egalari hamda 40 mingta alohida tomorqaga xizmat ko'rsatadi. Yil davomida talabgorlarning ehtiyojiga qarab maslahat uchrashuvlari o'tkazadi. Bu uchrashuvlarda huquqiy maslahatdan tortib, ekinni parvarish qilish, ko'kalamzorlashtirish, urug'lik yetkazib berishga oid maslahatlar beriladi. Shuningdek, tomorqalarga borib xizmat ko'rsatiladi. Ushbu uyushma ijtimoiy tarmoqlar orqali ilg'or tajribalarni almashadi hamda tomorqa egalari huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi [4].

Tadqiqot gipotezasi. O'zbekiston hududlarida tomorqa yerlaridan yanada samarali foydalanishda outsorsing xizmatini joriy qilish orqali daromadni oshirish yoki qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish mumkinmi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tomorqa maydonlaridan samarali foydalanish asosan Jahon banki va Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) hisobotlarida keng yoritilgan. Jumladan, FAO tadqiqotlarida kichik fermer va tomorqa xo'jaliklarining oziq-ovqat ta'minotidagi ulushi yuqori ekanligi ta'kidlangan. Ularning xulosalariga ko'ra, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish mahsulot yetishtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklari uchun hisobotlarda kichik yer maydonlarida intensiv ishlab chiqarish, yuqori qiymatli mahsulotlar yetishtirish va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkinligi ta'kidlanadi [5].

Jahon banki tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarida esa asosan qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, dehqon xo'jaliklari raqobatbardoshligini oshirish, sohada agrologistika va qiymat zanjirlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda sohaga investitsiyalar jalb qilish orqali aholi bandligi va kambag'allikni qisqartirish kabi agrar masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, tomorqa outsorsingiga oid hisobotlarda kichik ishlab chiqaruvchilarning maxsus xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (agroservis, texnika xizmatlari, marketing tashkilotlari) bilan hamkorligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va daromadlarni oshirishi qayd etiladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tomorqa xo'jaliklarining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganish maqsadida iqtisodiy tahlil hamda so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Iqtisodiy tahlil usuli orqali tomorqa xo'jaliklariga oid statistik ma'lumotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar va mavjud ilmiy manbalar o'rganilib, tadqiqot ob'ektining hududlar kesimida joriy holati baholandi. Shuningdek, tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni taqqoslash, dinamik o'zgarishlarni aniqlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni baholash usullari qo'llanildi.

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini empirik tahlil orqali respondentlarning fikr va qarashlarini aniqlash maqsadida so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma natijalari yig'ilib, tizimlashtirildi hamda statistik tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida tomorqa yerlaridan yanada samarali foydalanishda outsorsingni joriy etishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, mavjud tendensiyalar va ishtirokchilarning munosabatlari aniqlandi. Natijada tomorqa yerlaridan yanada samarali foydalanishda outsorsing xizmatini joriy qilish orqali daromadni oshirish yoki qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish mumkinmi degan tadqiqot gipotezalarini baholash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu usullar ma'lum bir ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish uchun asos sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning tomorqa yerlari salohiyati tahlili. O'zbekistonda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 4,9 millionta tomorqa xo'jaligi tasarrufida 741,2 ming gektar yer resursi mavjud bo'lib, ushbu maydonning 62,7 foizi (464,7 ming ga) ekin yerlari, 15,8 foizi (117,2 ming ga) ko'p yillik daraxtzorlar, 21,5 foizi (159,3 ming ga) imoratlar bilan band bo'lgan yerlardan iborat.

Jami 464,7 ming gektar tomorqa ekin yerlaridan 62,6 ming gektari dalada (aholi punktidan tashqarida), 402,1 ming gektari bevosita hovlida joylashgan.

Tahlillarga ko'ra, o'rtacha 1 ta tomorqa xo'jaligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 15 sotixdan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida 12 sotixdan, Navoiy va Samarqand viloyatlarida 11 sotixdan, Toshkent viloyatida 11 sotixdan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 4–7 sotixdan ekin yer maydoni to'g'ri keladi. Mamlakatning 83 ta tumanida aholi tomorqasidagi



ekin yer maydonlari 10 sotixdan 20 sotixgacha tashkil etadi, ya'ni qishloq tumanlarining 60 foizida tomorqa xo'jaliklarining ekin yerlari o'rtacha ko'rsatkichi 10 sotixdan 33 sotixgacha tashkil etadi. Jumladan, Kegayli, Shumanay, Qorovulbozor, Baxmal, Ko'kdala, Nurobod, Bandixon va Pskent tumanlarida o'rtacha 1 ta aholi tomorqasidagi ekin yerlarining hajmi 21–33 sotixgacha bo'lsa, Amudaryo, Chimboy, Qorako'l, Dehqonobod, Muborak, Mirishkor, Sherobod, Sayxunobod, Bo'ka va Qo'shko'pir tumanlarida esa 20–25 sotixni tashkil qiladi. Yuqoridagi tahlillar tomorqa yerlari mahsulot yetishtirish va qo'shimcha daromad olish uchun juda qulay imkoniyat ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tomorqa yer egalari turli xizmat ko'rsatish "Tomorqa xizmati" MCHJlar tashkil etilishi belgilangan. O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining ma'lumotiga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3105 ta "Tomorqa xizmati" MCHJlar tashkil etilgan va ular jami tomorqa yer egalari 9 foiziga xizmat ko'rsatgan.

Masalan, Buxoro viloyatida 200 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ tuzilgan bo'lib, o'rtacha 1 ta MCHJ 2 ming tomorqaga yoki 216 gektar yer maydoniga xizmat qilishi kerak. Tumanlar kesimida o'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ G'ijduvonda 3035 ta, Shofirkonda 2117 ta, Olotda 2113 ta, Peshkuda 2083 ta xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda.

Jizzax viloyatida 300 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ tuzilgan bo'lib, o'rtacha 1 ta MCHJ 587 ta tomorqaga yoki 84 gektar yer maydoniga xizmat qilishi kerak bo'lmoqda. Tumanlar kesimida o'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ G'allaorolda 922 ta, Zominda 884 ta, Baxmalda 712 ta, Sh. Rashidov tumanida 655 ta xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda.

Sirdaryo viloyatida 174 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ tuzilgan bo'lib, o'rtacha 1 ta MCHJ 873 ta tomorqaga yoki 109 gektar yer maydoniga xizmat qilishi kerak bo'lmoqda. Tumanlar kesimida o'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ Boyovutda 1201 ta, Sirdaryoda 1111 ta, Xovosda 1026 ta va Mirzaobodda 1000 ta xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, "Tomorqa xizmati" MCHJlarga qator imtiyozlar berilganiga qaramasdan, ular tomorqa yer egalari bilan to'liq bog'lana olmagan (to'liq qamrab ololmagan). Hatto tashkil etilganlari ham aholiga to'liq va malakali xizmat ko'rsata olmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi "Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-115-son qarorida ham juda ko'plab imkoniyatlar qayd etilgan. Tomorqa xizmatining joriy tizimi ushbu imkoniyatlarni yuzaga chiqara oladimi?

Yuqoridagi savolga javob topish maqsadida Buxoro, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida 239 nafar tomorqa egalari orasida so'rov o'tkazildi.

So'rov natijasida quyidagilar aniqlandi:

Tomorqadan daromad olishda ekin maydonining mavjudligi va uning hajmi alohida o'rin egallaydi. Tomorqa yerining hajmi va unga ekin ekilishi haqidagi savolga respondentlarning katta qismi tomorqa mavjudligi hamda unda ro'zg'or (65,9 foiz) va bozor (29,5 foiz) uchun ekin ekishini qayd etgan.

Tomorqa yerining ekin maydoni haqidagi savolga ishtirokchilarning 37,1 foizi 5 sotixgacha, 42,1 foizi 10 sotixgacha va qolgan 14,2 foizi 15–30 sotixgacha ekanligini qayd etgan. Tomorqa xo'jaligidagi umumiy yer maydonining 30 foizigacha imorat va hovli qurilgan holatlar kuzatildi.

Tomorqangiz atrofiga daraxt ekilganmi, degan savolga respondentlarning 86,1 foizi mevali daraxt, qolganlari boshqa turdagi daraxt ekanligini (asosan terak) aytgan. So'rov ishtirokchilari ayrim hududlardagi sho'rlanish darajasi va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq holatlar ekilgan daraxtlarning qurib qolishiga olib kelayotganini ham aytib o'tgan.

Qaysi turdagi ekin ekasiz, degan savolga respondentlarning 27,4 foizi uyda iste'mol qilish uchun sabzavot ekishini, 12,5 foizi bozorda sotish uchun sabzavot ekishini hamda 17 foizi uning o'rniga yem-xashak uchun beda, makkajo'xori kabi ekinlarni ekishini qayd etgan.

Autorsoring xizmatlari asosida sermahsul urug' yetkazib berish, texnika va bozor topishga ko'maklashish tomorqalardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. So'rovda ishtirok etganlarning 43,1 foizi sug'orish uchun suv ta'minoti yaxshi emasligini, 38,2 foizi infratuzilmaviy omillar (urug', texnika, mablag') yetishmasligini hamda 5,5 foizi daromad sarflangan xarajatni qoplamasligini tomorqada ekin ekishdagi asosiy qiyinchiliklar sifatida qayd etgan. Suv ta'minoti bilan bog'liq muammo ayni yoz oylarida vujudga kelib, katta dalalarni sug'orish davrida tomorqa egalari suvsiz qolib ketish holatlari uchrab turadi.

Tomorqa yeridan foydalanishda dehqonlarning ko'p qismi ekin ekish bilan birga chorva va parrandani ko'paytirishini (56,5 foiz) qayd etgani daromad olishda o'z faoliyatini diversifikatsiya qilayotganidan darak beradi. Shuningdek, so'ralganlarning 13,5 foizi umuman chorva va parrandasi yo'qligini qayd etgan.



Tomorqaga ekin ekish va chorva qilish uchun dastlabki mablag'ingiz bormi, degan savolga so'rovda qatnashganlarning 66,3 foizi mablag'i borligini, 21,1 foizi mablag'i yo'qligini va 11,2 foizi qarz olishini qayd etgan.

Dehqonlarning 47,8 foizi tomorqaga ekin ekish va chorva qilish uchun imtiyozlar va subsidiyalardan foydalanmaganligini, 11,5 foizi esa imtiyozlardan xabari yo'qligini bildirgan. Faqat 39,3 foizi mavjud imtiyozlardan foydalanganligini bildirgan.


Tomorqadan yuqori daromad olishda ularga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda hududingizda (mahallada) "Tomorqa xizmati" MCHJ yoki YATT bormi, degan savolga respondentlarning 33,2 foizi yo'q, eshitmaganman (Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich 62 foizni tashkil qilgan), 20,6 foizi ha bor, xizmatidan foydalanganman, 21,1 foizi ha bor, lekin xizmatidan foydalanmaganman, 15,9 foizi tomorqa xizmatiga ehtiyojim yo'q, 9,5 foizi agar bo'lsa, xizmatidan foydalanaman deb javob bergan. Shuningdek, so'rov jarayonida "Tomorqa xizmati" MCHJlar ko'p tumanlarda tuman markazida ochilgani kuzatildi. Vaholanki, ularning xizmatiga ko'proq chekka qishloqdagi tomorqachilar muhtoj bo'lib turibdi.

So'rovda qatnashganlarning 38,2 foizi mini-traktorda yer haydash xizmatiga hamda 13,1 foizi zararli hasharotlarga qarshi kurash, 6,3 foizi issiqxona qurib berish, 20,3 foizi artezian qazish va suv chiqarish, 22,1 foizi ekinni o'g'itlash va agronom xizmati va maslahatiga ehtiyoji borligini qayd etgan.

Tomorqa xizmatini ko'rsatish (yer haydash, ekin ekish, mevali daraxt ekish, chorva boqish) uchun pul to'lay olasizmi, degan savolga respondentlarning 63,2 foizi ha, 27,1 foizi yo'q, 9,7 foizi tomorqadan sherikchilik asosida hosil olmoqchiman deb javob bergan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi o'rganishlar natijasi har bir aholi punktining o'zida aholi tomorqa yerlariga outsorsing xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyalarni shakllantirish orqali ularga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish zaruriyatini ko'rsatmoqda (1-rasm).



1-rasm. Aholi tomorqa yerlariga outsorsing xizmatini ko'rsatish kompaniyasining sxemasi

Autsorsing xizmatlari dastlab yerni haydash, tuproq unumdorligini oshirish, bozorbop ekin ekish va unga biotexnologik xizmat ko'rsatish, bog'dorchilik, o'zaro kelishuv asosida sotish, tashish xizmatlarini ko'rsatish, qadoqlash va qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish kabilardan iborat bo'ladi.


Tomorqa xizmati yil davomida kuz-qish, bahor-yoz mavsumida uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlash uchun aniq infratuzilma sharoitlarini shakllantirish zarur. Bunda xizmat ko'rsatuvchi korxona bir vaqtning o'zida nechta tomorqaga xizmat ko'rsata olishini ham mahalliy mutaxassislar jiddiy o'ylab ko'rishlari kerak.

Yuqoridagi sxema har bir mahallada mahalliy tadbirkorlar yoki shu hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar tashabbusi bilan xonadonlar soni va ekin maydonidan kelib chiqib, "Tomorqa xizmati" YATTLarni tashkil etish orqali sifatli xizmat ko'rsatishni anglatadi.

O'tkazilgan so'rov va kuzatuvlar natijasiga ko'ra, ko'pgina mahallalarda tomorqa xizmatini ko'rsatish (yer haydash berish) qisman mavjud va bu tarqoq holda mahalliy tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirilayotgani ma'lum bo'ldi. Shu sababli, outsorsing xizmatlarini mahallaning o'zida yoki tomorqa xo'jaliklariga yaqin va qulay joyda tizimli ravishda ko'rsatish maqsadga muvofiq. Mahallalarda tomorqaga outsorsing xizmatini ko'rsatish



tizimini tashkil etish mahalliy tashabbuskorlarni bosqichma-bosqich yirik xizmat ko'rsatish muassasasiga aylantirishni quyidagi sxema orqali amalga oshirishni tavsiya etamiz (2-rasm).



2-rasm. Mahallalarda tomorqaga outsorsing xizmatining ko'rsatish tizimini tashkil etish bosqichlari

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda tomorqa yerlariga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, ya'ni tomorqaga ekin ekishda mahalliy ixtisoslashuv, suv va bozorning mavjudligi kabi omillarni e'tiborga olgan holda outsorsing xizmatini tashkil etish zarur. Xizmat ko'rsatishda aynan ular uchun yetishmayotgan sharoitlarni shakllantirishga harakat qilish maqsadga muvofiq [7,8].

Jumladan, bunda:

tomorqa xizmatini ko'rsatish tuman markazlarida emas, balki bevosita mahallalarning o'zida ochish maqsadga muvofiq. Tomorqadan uzoqda ochilgan xizmat ko'rsatish korxonasi o'z vaqtida kelib xizmat ko'rsata olmaydi va oqibatda mo'l hosil olinmay qolishi mumkin. Shuningdek, ayrim mahallalarda tomorqa yerlarining umumiy maydoni 185 gektarni tashkil etadi va bu xizmat ko'rsatish uchun "kerakli hajm" mavjudligidan darak beradi;

"Tomorqa xizmati" YATTLarga mahalla idorasi va hududlarda bo'sh turgan binolardan tekinga foydalanish huquqini berish;

keyingi bosqichda esa "Tomorqa xizmati" YATTLar tomonidan muzlatkichli omborxona, qadoqlash, quritish, qayta ishlash sexlari barpo etish, texnika va inventarlarni saqlash hamda yetishtirilgan mahsulotni sotish uchun mahalla hududida dala do'koni qurish uchun yer maydoni ajratish;

"Tomorqa xizmati" YATTLarga 5 yil davomida ayrim turdagi soliq to'lovlari uchun imtiyozlar berish (yer maydoni uchun yer solig'i, bino-inshootlar uchun mol-mulk solig'i);

"Onlayn-mahalla" platformasi tashkil etilib, unda tomorqadagi barcha ma'lumotlar bazasini shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish (bunda: tomorqa soni, ekin maydoni, ekin turi, yig'ib olingan mahsulot miqdori, chorva mollari bosh soni, ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari va hokazolar).

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnoma. – 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3680-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3698698?ONDATE=18.02.2025>
3. Köhlein F. Das große Buch der Steingartenpflanzen. – Ulmer Eugen Verlag, 2024. – 318 s. ISBN 978-3800165599.
4. The National Allotment Society. About the organization. URL: <https://thenas.org.uk/>
5. Food and Agriculture Organization (FAO). Smallholders and Family Farms Reports. – 2020. ISBN 978-92-5-108536-3 (print), 978-92-5-108537-0 (PDF).
6. World Bank. Agriculture for Development. World Development Report, 2008. URL: <https://elibrary.worldbank.org/doi/10.1596/978-0-8213-6807-7>
7. Qo'ziev K. Hududning yer va suv resurslari salohiyatini baholash asosida o'sish drayverlarini aniqlash // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar jurnali. – 2022. – №3. – B. 71–77.
8. Qo'ziev K., Aydarbekova A. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi indeksi // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar jurnali. – 2026. – №1. – B. 156–165.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>